But among them, environmentally friendly, it is important to choose the one that is effective in use and at the same time financially acceptable. From this point of view wind energy has a number of advantages. Wind is the first energy used by humans is one of the sources. Wind energy reserves 100 times more than the hydropower of rivers, but today 107 MW □ hours of energy is produced worldwide per day. This the indicator is 0.001 percent of the world energy balance. Various programs for the use of wind energy in the world developed. Now scientists and engineers are agricultural and technically improved for industrial needs, constructions of strong and reliable wind engines created. Wind energy devices can be divided into 2 types:

1. Wind mechanic;
2. Wind energy.

First of all, it should be said that wind is a renewable energy source is considered That's why Kurrayi floats over our land The history of using air flow for domestic purposes is also long goes back. According to the sources, in the II century BC





Windmills for threshing grain for the first time in Persia started to be used. By the 13th century, such devices came to Europe entered. Wind for electricity production and the first power plant (ShES) was built in Denmark in 1890 created. Project of a wind turbine in 1930 was developed and later in the Crimean city of Rossuya in the world the first



100 kW wind turbine with a diameter of 30 meters

Figure 1. General view of the wind turbine

the wheel is installed.

Sevastopol electric power produced by SPP was directly connected to the power plant. But the Second

During the World War, this ShES was destroyed. 40-70 of XX

century In 2010, this industry went through a period of crisis. Finally, By the 1980s, in the US state of California with the help of SHES creation of a number of benefits for electricity producers interest in the industry started to revive again. Germany's use of wind energy today is leading in the world. According to the data, 9000 MW power plants in this country in recent years has been established and this process continues rapidly. Europe now 60,000 in the branches of industry of the countries related to SPPs More than 100,000 people are permanently employed. The goals are the same okay For example, by 2020, Germany plans to produce 20 percent of its electricity using CHPs. While other members of the European Union plan to install 180,000 MW power plants, China plans to build 30,000 MW of such plants in its national development program. In addition, Great Britain, Norway, Canada, India, Japan, Spain, New Zealand purposeful development of the wind energy industry in the near future information about the development of state plans related to there is International Energy Agency (Inernational Energy Agency) according to estimates, by 2030, wind will be on our planet the need for energy is 4800 gigawatts.

Large power (megawatt) turbines have large dimensions and their new models are electric power from 2 MW to 5 MW able to produce energy. A strong sea wind swirls to get them, they usually go to the water near the shore will be placed. Such wind





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

turbines are currently in the UK, In Germany, Denmark, Ireland and other countries is being used.

References:

1. Бобылев С.Н., Ходжаев А.Ш. Экономика природопользования. Учебник. – Москва: 2003. – 567 с.
2. Германович В., Турилин А. Альтернативные источники энергии. Практические конструкции по использованию энергии ветра, солнца, воды, земли, биомассы. – Санк-Петербург: Наука и техника, 2011. – 320 с
3. Городов Р.В., Губин В.Е., Матвеев А.С. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. – Томск: Изд-во Томского политехнического университета, 2009. – 294 с.
4. Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES)Volume: 02 Issue: 06 | 2023 <http://innosci.org/> ISSN: 2751-7578
5. Khasanov Diyorzhan Ramish 1, Abdunazarov Shahzodbek 2, Otakuzieva Vazirahon Usmanjonova 3., Production of an Improved Version of Alternative Energy Sources, Miasto Przyszłości Kielce 2023 Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X
6. Khasanov Diyorzhan Ramish boy, Abdug'aniyeva Mohirahon TDTU Kokan, Branch student Otakuzieva Vazirahon Usmanjonova TDTU Kokan Branch Professor (PhD)., Role of Wind Turbens in Renewable Energy Sources, Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science (JISES) Volume: 02 Issue: 06 | 2023 ISSN: 2751-7578 <http://innosci.org/>



СУРХОН ВОҲАСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Чориева М.Ш.-Иқтисодиёт ва туризм факультети 3-босқич талабаси

Annotation: The article outlines a number of proposals for the development of tourism in the Surkhandarya region, as well as the existing problems, the service delivery system, and human resource issues. Proposal for the visit to the region and the development of medical tourism, as well as proposals for the creation of the "Old Village" tourism as a new direction.

Аннотация: В статье излагается ряд предложений по развитию туризма в Сурхандарьинской области, а также существующие проблемы, система предоставления услуг и вопросы кадровых ресурсов. Предложение о посещении региона и развитии медицинского туризма, а также предложения по созданию туризма «Старая деревня» как новое направление.

Key Words: Tourism, cluster of mountain tourism, rural tourism, historical and travel tourism, ecological tourism, infrastructure, Omonxona, Sangardak, Hanjiza

Ключевые слова: туризм, кластер горного туризма, сельский туризм, исторический и туристический туризм, экологический туризм, инфраструктура, Omonxona, Sangardak, Hanjiza

Мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотлар ҳаётнинг барча жабҳаларида ўзининг ижобий натижаларини бермоқда. Мустақилликнинг дастлабки йиллариданоқ ҳаётга тадбиқ этилган ва бугунги кунгача изчиллик билан амалга ошириб келинаётган бу ислохотларнинг пировард натижаси сифатида мамлакатимизда барқарор иқтисодий ўсишга эришаётганлигини алоҳида таъкидлаш ўринлидир.

Мамлакатимизда ялпи ички маҳсулотнинг ўсиш кўрсаткичлари сўнгги йилларда 6-8 фоиз кўрсаткичга эга бўлмоқда. Ўтган 2019 йилда ЯИМ 5,1 фоизга ўсди ва бу ўсишда хизматлар соҳасининг улуши юқори бўлди (6,9%).

Ҳозирги кунда дунёдаги жуда кўплаб ривожланган давлатлар ЯИМда хизматлар соҳасининг улуши анча юқори кўрсаткичга эга ва шу билан бирга



туризм хизматлари орқали олинаётган даромадлар ҳам юқори. Хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасининг муҳим таркибий қисмларидан бири бу туризмдир.

Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришга доир меъёрий ҳужжатлар ишлаб чиқилмоқда ва бунинг натижасида Ўзбекистонда яқин йиллар ичида ЯИМда туризм соҳасининг улушини 5%га ошириш мақсад қилинган. Ҳозирги кунда мамлакат ЯИМда туризмнинг улуши 1% лик кўрсаткич атрофида.

Сурхондарё вилоятида ҳам туризм соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратила бошланди. Бу борада ҳудудда етарли даражада имкониятлар мавжуд, аммо шу ўринда бир қатор муаммолар ҳам юзага чиқади.

Мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёев Сурхондарё вилоятига ташрифи чоғида воҳанинг туризм салоҳиятидан самарали фойдаланиб, янги иш ўринлари яратиш ва аҳоли даромадларини оширишга алоҳида эътибор қаратган эди. Шунга мувофиқ вилоятда кейинги йилларда Сурхондарё вилоятининг туризм салоҳиятини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари дастури қабул қилинмоқда. Унда ҳудуднинг янгиланган, замонавий қиёфасини яратиш, транспорт инфратузилмасини такомиллаштириш, хориждан ташриф буюраётган сайёҳларга сифатли хизматлар кўрсатиш каби муҳим масалаларга алоҳида аҳамият берилгани зиёрат туризми имкониятларидан унумли фойдаланишга қулай муҳит яратади.

Сурхондарё вилоятида Ҳаким Термизий, Исо Термизий каби кўплаб буюк олимларга бешик бўлган, Бой тарихга эга бу юртда Сўфи Оллоёр, Алоуддин Аттор, Муҳаммад Зоҳид сингари улуғ зотлар мангу кўним топган. Ишлаб чиқилаётган дастур асосида Бойсун, Термиз, Жарқўрғон, Олтинсой, Денов, Узун, Шеробод туманларидаги муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳлар реконструкция қилиниб, ободонлаштирилади ва хизмат кўрсатиш тармоқлари ривожлантирилади. Хорижлик сайёҳларнинг эмин-эркин зиёрат қилиши учун барча замонавий шароитлар яратилади.

Масалан, зиёрат туризмини ривожлантириш борасида амалга ошириладиган кенг қамровли бунёдкорлик ишлари доирасида Термиз туманидаги Кокилдор ота, Қирқ қиз, Султон Саодат ёдгорликлари, Чоргумбаз масжиди, Бойсун туманидаги Ҳазрати Эшонбобо зиёратгоҳи ва шифобахш суви, Ҳазрати Султон Валий, Жарқўрғон туманидаги Хўжа Самандар Термизий зиёратгоҳлари, Олтинсой





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

туманидаги Хўжаипок зиёратгоҳи ва шифобахш суви, Узун туманидаги Ок остона бобо макбараси каби тарихий обидалар сўлим гўшага айлантирилади.

Сурхондарё вилоятида туризмни ривожлантириш учун 374 тарихий, маданий, санъат, меъморий обидалар, ноёб археологик қазилмалар мавжуд.

Вилоятнинг табиий сўлим гўшалари, мафтункор шаршаралари, маъданли сув ва шифобахш тоғ тузлари агро-эко, тоғ ва тиббиёт туризмини кенг йўлга қўйишга қулай имконият яратади. Қадимий бу юртнинг ўзига хос урф-одат ва анъаналари, миллий ҳунармандчилик буюмлари ҳам дунё аҳлида катта қизиқиш уйғотиб келади.


Вилоятнинг барча ҳудудларида зиёрат ва тиббий ва саёҳат туризмини ривожлантириш учун етарли даражада имкониятлар мавжуд. Бу борада кўплаб чора тадбирлар амалга оширилмоқда.

Вилоят ҳудудида учта тоғ туризми кластерини ташкил этиш кўзда тутилмоқда.

Булар Бойсун туманидаги Омонхона, Дарбанд қишлоғи ва Зовбоши тоғли ҳудудини қамраб оладиган Бойсун тоғ туризми кластери, Сариосиё ва Узун туманларидаги Хонжиза тоғ тизмалари ёнбағри ҳамда Сариосиё туманидаги Сангардак қишлоғи ҳудудида Сариосиё тоғ туризми кластери фаолияти йўлга қўйилса, Шеробод тоғ туризми кластери таркибида Шалқон қишлоғи, Хўжаикон туз кони атрофи ва ҳудуддаги анорзор ҳамда бошқа мевали боғ-роғлар киритилиб, такомиллаштирилади.

Вилоятда ташкил этиладиган кичик туризм зоналарида янги меҳмонхоналар, маданий-соғломлаштириш, савдо-қўнғилочар ва туристик аҳамиятдаги бошқа иншоотлар қурилиши ва замонавий муҳандислик инфратузилма объектлари барпо этилиши режалаштирилган.

Шу ўринда Бойсуннинг тоғларида қадимий қишлоқ ҳудудини ташкил этиш ушбу соҳада янги йўналишни очиб бериши ва яхши самара бериши мумкин. Қишлоқнинг бошқа қишлоқлардан фарқи замонавий ривожланишдан ажралган ҳолда қадимда аجدодларимизнинг яшаш тарзи, турмуш шароитларини ўзида мужассам этади. Ҳудуддаги барча иншоотлар ва буюмлар ўзида тарихни акс эттириб туриши лозим. Ҳозирги ривожланган дунёда ушбу лойиҳа кўплаб сайёҳларни ўзига жалб эта олади деган умиддамиз.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

Худудда туризм соҳасида ўз ечимини кутаётган бир қанча муаммолар мавжуд:

- мамлакатда мавжуд туристик ресурслардан етарли даражада самарали фойдаланилмаётганлиги;
- ички туризм, айниқса, экотуризм борасида истиқболли, инновацион ғояларнинг камлиги;
- кўрсатилаётган хизматлар сифатининг юқори эмаслиги;
- туризм соҳасида фаолият кўрсатаётган кадрлар малакаси билан боғлиқ муаммолар.

Ушбу муаммоларни ҳал қилишда соҳага инновацияларни жалб этиш муҳим. Туризм соҳасини ривожлантириш ҳақида сўз юритганда, аввало, инновацион ғояларга алоҳида эътибор бериш лозим деб ўйлаймиз. Бизнинг фикримизча, инновацияларда асосий эътибор ички резервларга қаратилиши, яъни ўзимизда мавжуд имкониятлардан интенсив йўл билан фойдаланишга алоҳида тўхталиш лозим. Айниқса Осиё давлатларида туризмни ривожлантиришда асосан табиатга, ҳайвонот оламига, қисқача олганда табиийликка алоҳида эътибор қаратилади.

Ушбу йўналишларда туризм соҳасини улкан даромад манбаига айлантириш учун Сурхондарё худудида ҳам имкониятлар чексиз.

Шу билан бирга Сурхондарё вилоятида айниқса тарихий, тиббий ва экотуризмни ташкил қилиш бўйича етарли имкониятлар мавжуд эканлигини инобатга олиб, шу каби худудларни ташкил қилиш ва табиатнинг гўзал манзараларини томоша қилишни ташкил этиш, хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасида фаолият кўрсатувчи кадрлар малакасини оширишга алоҳида эътибор бериш ва бу соҳадаги етакчи хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорликни кенгайтириш, вилоятимизда шифобахш сув, қум ва туз ҳавзалари мавжудлигини инобатга олиб, бу худудларда пуллик тиббий хизматларни ташкил этиш, яъни даволаниш санаторияларини очиш орқали сайёҳларни жалб қилиш мумкин. Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришга берилаётган эътибор ва берилаётган имтиёзлар соҳадаги имкониятларимизни янада оширади.

Ушбу таклифлар ва ғояларни ҳаётга тадбиқ этиш худудда туризм соҳасини жадал ривожлантириш имконини беради деб ҳисоблаймиз.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

URUG‘ SIFATI VA QONDAGI TESTOSTERONNING VARIKOSELEKTOMIYADAN OLDIN VA KEYINGI MIQDORI O‘ZGARISHI

**Boyqulov To‘rabek Temirovich-Toshkent Tibbiyot Akademiyasi
Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi, urologiya va bolalar urologiyasi
kafedrası assistenti, urolog-androlog**

turabekboyqulov04@gmail.com

**Xursandov Ilyos Ahmedovich- Termiz iqtisodiyot va servis
universiteti Tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrası assistenti, urolog-androlog**

ANNOTATSIYA


Varikosele reproduktiv yoshdagi erkaklarda uchraydigan va bepushtlikning eng ko‘p sababi bo‘lgan kasallikdir. Turli ma‘lumotlarga ko‘ra yorg‘oq venalarining varikoz kengayishi turli yosh guruhlarida 2 dan 70% gacha uchraydi. Tahlillarga ko‘ra erkaklarda varikosele 50 yoshdan 79 yoshgacha 77,3% hollarda kuzatiladi. Bu haqida U.Levingerning kuzatuvlari qiziqarli: varikosele uchrashi yoshga qarab hayotning har 10 yilida taxminan 10% ga oshib, 80 yoshda 75% ga yetadi.

Varikosele keng tarqalishiga qaramay, uning erkak jinsiy tizimiga ta‘siri to‘g‘risida munozaralar mavjud. An‘anaga ko‘ra, varikosele Sertoli hujayralariga salbiy erkaklar bepushtligining ko‘p uchraydigan sababidir. Kuzatuvlar varikosele ta‘sirida Leydig hujayralarining funksiyasini ham ingibitsiya qilishi va testosteron ishlab chiqarilishini buzishini ko‘rsatmoqda.

KALIT SO‘ZLAR: Varikosele, androgenlar, testosteron, bepushtlik, sertoli hujayralari, leydig hujayralari, Ivanisevich amaliyoti, mikroxirurg Marmar amaliyoti.

KIRISH

So‘nggi yillarda turli mualliflar varikosele testosteron darajasiga ta‘siri bo‘yicha alohida tadqiqotlar o‘tkazdilar. 1995-2014 yillarda o‘tkazilgan 15 ta tadqiqot natijalarini ko‘rib chiqdik. Varikoselektomiya natijasida testosteron darajasining oshishi barcha tadqiqotlarda qayd etilgan, bu 15 dan 10 tasida farq statistik jihatdan ishonchli edi. Shuni ta‘kidlash kerakki, 5 ta tadqiqotda farqlar statistik jihatdan





ishonchli emas edi, testosteron darajasi operatsiyadan oldin va keyin (3,5 ng/ml dan ortiq).

ADABIYOTLAR TAHLILI

Medline, PubMed, EMBASE ma'lumotlar bazasi yordamida elektron adabiyotlarni qidirish amalga oshirildi. Quyidagi kalit so'zlar ishlatilgan: "varikosele", "sertoli hujayrasi", "leydig hujayrasi", "androgenlar", "testosteron".

NATIJALAR

X. Chen 8 ta tadqiqotni o'z ichiga olgan metatahlil o'tkazdi. 7 ta tadqiqotda statistik jihatdan namoyish etilgan varikoselektomiya natijasida testosteron darajasining sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Mualliflarning ta'kidlashicha, testosteron yetishmovchiligi va infertil bo'lgan bemorlarda maksimal yaxshilanish qayd etilgan. Y. Gat testosteron darajasining o'zgarishini varikosele bo'lgan 83 infertil bemorda tahlil qildi, operatsiyadan keyin umumiy va erkin testoseron darajasining oshishi operatsiya natijasida bemorlarning 95 foizida qayd etildi. Shuni ta'kidlash kerakki, operatsiyadan oldingi testosteron darajasi bemorlarning 62 foizida normal edi.

Eng keng ko'lamli qiyosiy tadqiqot P. Whelan va L. Levine ishidir. Ular varikoselening testosteron darajasiga ta'sirini o'rganadigan 28 ta tadqiqotni tahlil qildilar. Testosteron yetishmovchiligi bo'lgan infertil bemorlarda yoki uning darajasi normaning pastki chegarasida, o'rta yoshli bemorlarda, testosteron darajasi past bo'lgan fertil bemorlarda, subklinik varikosele bemorlarda varikoselektomiya samaradorligi baholandi. Infertil bemorlarda gormonal profil va spermogramma parametrlaridagi o'zgarishlarni baholash to'rtta tadqiqotda o'tkazildi. Ushbu bemorlarda umumiy testosteron darajasining statistik jihatdan ishonchli ko'tarilishi, shuningdek operatsiyadan keyin spermogramma parametrlarining yaxshilanishi qayd etilgan. O'rta yoshli bemorlarda gormonal profil va spermogramma parametrlarining o'zgarishi ikkita tadqiqotda baholandi.

B. Reşorlu tomonidan o'tkazilgan birinchi tadqiqotda., 18 yoshdan 48 yoshgacha bo'lgan 96 bemor ishtirok etdi. Mikrojarrohlik varikoselektomiyasi natijasida barcha bemor guruhlarida spermogramma parametrlari yaxshilandi. Gormonal profilni o'rganishda statistik jihatdan ishonchli farqlar topilmadi, ammo umumiy testosteron darajasining oshishi va luteinlashtiruvchi va follikulani stimulyatsiya qiluvchi gormonlarning pasayishi tendensiyasi kuzatildi. W. Hsiao va boshqalar tomonidan o'tkazilgan ikkinchi tadqiqotda., 272 bemor ishtirok etdi. Yoshiga qarab, ular uch






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

guruhga bo'lingan: 30 yoshgacha, 31-39 yosh, 39 yoshdan katta. Spermogramma parametrlarining yaxshilanishi barcha guruhlarda qayd etilgan. Operatsiyadan keyin umumiy testosteron darajasining oshishi barcha guruhlarda ham qayd etilgan, testosteron darajasi 4 ng/ml va undan past bo'lgan bemorlarda maksimal o'sish kuzatilgan.

R. P. Hayden va C. Tanrikut varikoselektomiya natijalarini 18 dan ortiq tadqiqotlar bilan taqqosladilar. Ko'pgina hollarda testosteron darajasining statistik jihatdan ishonchli o'sishi qayd etilgan. Shuningdek, mualliflar operatsiyadan keyin testosteron darajasining oshishi ahamiyatsiz va statistik jihatdan noto'g'ri bo'lgan tadqiqotlarda operatsiyadan oldingi testosteron darajasi normal (400 ng/dl dan yuqori) ekanligini ta'kidladilar. O'tkazilgan tadqiqotlar bilvosita yoki to'g'ridan-to'g'ri varikoselektomiya Leydig hujayralari faoliyatini ingibitsiya qilishini va shu bilan testosteron ishlab chiqarishga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Varikoselektomiya Leydig hujayralari funksiyasiga patofiziologik ta'siri masalasida dastlab Leydig hujayralarining reaksiyasi Sertoli hujayralarining gipoksiya, gipertermiya va oksidlovchi stressga javoban reaksiyasiga o'xshash deb taxmin qilingan, bu venoz qon oqimining buzilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ba'zi tadqiqotchilar hatto testosteron ishlab chiqarishning buzilishi spermatogenezning keyingi ingibitsiyasining asosiy sababi deb taxmin qilishdi. Keyinchalik Leydig hujayralarining disfunktsiyasi va spermatogenezning buzilishi umumiy asosiy sabablarga ega bo'lgan mustaqil jarayonlar ekanligini ko'rsatadigan ma'lumotlar taqdim etildi. Hayvonlarda o'tkazilgan keyingi tadqiqotlar davomida varikoselektomiya Leydig hujayralari funksiyasining buzilishi ko'plab omillar natijasida yuzaga kelishi aniqlandi: intrakapillyar bosimning oshishi, reaktiv kislorod turlari ishlab chiqarishning ko'payishi, retseptorlarning disfunktsiyasi. 2013-yilda bu ma'lumotlar odamlarda ham tasdiqlangan. Ba'zi tadqiqotlar varikoselektomiyadan so'ng follikula stimullovchi gormon (FSH) darajasining biroz pasayishi va Ingibin B darajasining oshishiga ishora qiladi. Varikoselektomiya moyaklar rivojlanishiga va o'smir o'g'il bolalarda testosteron darajasining pasayishiga salbiy ta'sirini ko'rsatadigan alohida tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular keyingi fertillik muammolari paydo bo'lishining oldini olish uchun ushbu patologiyani erta davolash zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA





Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki testosteron darajasi va fertillik xususiyati varikoseleni bartaraf qilish operatsiyasidan keyin oshadi. Shu bilan birga bu o'zgarishlar darajasi operatsiya usuliga bog'liqligi to'liq o'rganilmagan. Shu munosabat bilan, keyingi tadqiqotlarimiz yo'nalishi varikosele kasalligida testosteron miqdori va fertillik xususiyatining operatsiya usuliga bog'liq ravishda qanday o'zgarishini aniqlash, eng optimal jarrohlik usulini tanlash va davolash samaradorligini oshirishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boyqulov T.T. va boshqalar. COVID-19 INFEKSIYASIDA ERKAKLAR BEPUSHTLIGI VA JINSIY ZAIFLIK. XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR 2023, 1(1),13-19.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hJ-8kMMAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=hJ-8kMMAAAAJ:roLk4NBRz8UC
2. Boyqulov T.T. va boshqalar. SIYDIK-TANOSIL TIZIMI VA COVID-19 HAQIDA BA'ZI BIR SAVOLLAR. - Journal of Universal Science Research, 2023, 1 (4) 103-113.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=hJ-8kMMAAAAJ&authuser=1&citation_for_view=hJ-8kMMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
3. Louis JF, Thoma ME, Sorensen DN, McLain AC, King RB, Sundaram R, et al. The prevalence of couple infertility in the United States from a male perspective: evidence from a nationally representative sample. *Andrology* 2013;1(5):741-748.
<https://doi.org/10.1111/j.2047-2927.2013.00110.x>.
4. Salonia A, Bettocchi C, Carvalho J, Corona G, Jones TH, Kadioglu A, et al. Guidelines on sexual and reproductive health. European Association of Urology 2021. URL: <https://www.europeanurology.com/article/>
5. Лебедев Г.С., Голубев Н.А., Шадеркин И.А., Шадеркина В.А., Аполихин О.И., Сивков А.В., Комарова В.А. Мужское бесплодие в Российской Федерации: статистические данные за 2000-2018 годы. *Экспериментальная и клиническая урология* 2019(4):4-12.





ЯРИМЎТКАЗУВЧАН ПОЛИМЕР МОДДАЛАР АСОСИДАГИ ҚУЁШ БАТАРЕЯЛАР

Жалматова Г., Шукуров Д.Х.
Термиз давлат университети

Аннотация: Мақолада яримўтказувчан полимер моддалар асосидаги қуёш батареялар, яримўтказгич полимер моддалар синтези ва юқори энергия конверцияси, иқтисодий самарадорлиги улардан кенг кўламда фойдаланиш борасида, шунингдек яримўтказгич полимерларнинг фотохимёвий хоссалари тадқиқи ҳақида фикр мулоҳазалар келтирилган.

Калит сўзлар: Қуёш батарея, электр ўтказувчан, полимерлар, яримўтказгич, полианилин, полипирол, политиофен, полиацетилен.

Яримўтказувчан полимерлар органик бирикмалар бўлиб, улар таркибида металл атомлари мавжуд эмас, аммо уларнинг электр ўтказувчанлик даражаси ноорганик яримўтказгичларнинг ўтказувчанлик минтақасини қамраб олади ва металлларнинг ўтказувчанлиги чегараларига етади. Яримўтказувчан полимерларнинг хусусиятлари ноорганик яримўтказгичларнинг хусусиятларига ўхшашлиги учун улар "ақлли" полимерлар деб номланади. Сўнги йилларда кимё соҳасидаги нобел мукофоти электр ўтказувчан полимерлар соҳасидаги тадқиқотлар учун берилиши айнан мана шу яримўтказгич полимер моддалар синтези ва уларнинг фотохимёвий хоссаларини ўрганиш орқали полимер материалларга асосланган қуёш батареяларнинг ишлаб чиқарилиши бутун электротехника саноатининг ривожланишига олиб келмоқда [1].

Ҳозирги кунда яримўтказувчан полимерларни синтези ва улардан фотоэлектротехникада фойдаланиш бўйича тадқиқотчи олимларда қизиқиш тобора ортиб бормоқда. Айниқса полианилин, полиетиофен, полипирол, полиацетилен ва ҳоказолар. Полианилин энг истиқболли ўтказгичлардан бири ҳисобланиб, тайёрлашнинг осонлиги, дастлабки мономернинг арзонлиги ва уларни ўзгартириш қобилияти туфайли полимерлар муҳитнинг кислоталигига, асосий полимер занжирининг оксидланиш даражасига қараб физик-кимёвий хусусиятлари ва заррачалар тузулишига боғлиқ холда амалга ошади.





Яримўтказувчан полимерлар синфининг энг муҳим ва кенг тарқалган вакиллари: полианилин (ПАНИ) ва полипиррол (ППи), политиофен, полиацетилен ва ҳоказолар. Ушбу полимерлар юқори барқарорлик билан бирлаштирилган юқори электр ўтказувчанликка эга. Шу сабабли, полианилин ва полипирролнинг мавжуд ва мумкин бўлган қўлланилиш доираси энг беқиёсдир. ПАНИ асосида турли хил электрон қурилмалар жумладан: сенсорлар, ёруғликка сезгир йўл белгилари, актуаторлар, ёқилғи ва энергия тежайдиган элементлар, қуёш панеллари ва фотоэлектротехника қурилмалар ишлаб чиқарилмоқда [2]. Санаб ўтилган қурилмаларда полимер яримўтказгич моддалар ташувчи (субстратларда) юпқа қатлам сифатида ишлатилади ва қатламларнинг қалинлиги субмикрон ва нано ўлчамлар оралиғида бўлади. Ёруғлик таъсири остида полимер яримўтказгичларнинг ўтказувчанлиги кескин ўзгариши мумкин. Полимер яримўтказгичларнинг бу хусусияти (фотокондуктивлик) кўринадиган ва узок инфрақизил нурларга сезгир бўлган фоторезисторларни яратиш учун ишлатилади [4].

Ҳар хил яримўтказгич полимер моддаларнинг электроактивлигига қараб қаршилиги ($\text{ohm}^{-1} \times \text{sm}^{-1}$ да) қуйидагича бўлади ва қаршилиқ қанчалик кичик бўлса электр ўтказувчанлик шунча юқори бўлади:

10^{-20} – политетрафторэтилен, 10^{-15} - полиимид, полистирол, ПВХ, полифениленсульфид ва поли-п-фенилен, 10^{-10} полипиррол, политиофен, полиацетилен, 10^{-5} - полифталоцианин (металл фталоцианинлар 10^{-12} - 10^{-4}).

Полимер моддалар асосидаги қуёш батареяларда фотоактив қатлам икки турдаги материаллардан иборат: донор ва акцептор. Ёруғлик нури батареянинг юзасига тушганда, донор (одатда конюгирланган қўшбоғга эга полимер) унинг фотонини ютади. Ушбу фотоннинг тўлқин узунлиги яни энергияси тўғридан-тўғри донор материалнинг кимёвий тузилишига ва унинг қатламига боғлиқ. Фотоннинг ютилган энергияси электронларни қўзғалган ҳолатга ёки энг юқори ишғол қилинган молекуляр орбиталдан (НОМО) энг паст эркин молекуляр орбиталга (LUMO) олиб келади.

Яримўтказувчан полимерларнинг электр ўтказувчанлиги полимер молекулаларида электронларнинг ҳаракатчанлиги ва эритмада мамжуд бўлган кимёвий реагентлар яъни қўшиладиган композитларга боғлиқ эканлиги сабабли, улар асосида турли хил аралашмаларнинг органик ва ноорганик таркибий





қисмларидан фотосенсорлар тайёрланади. Яримўтказувчан полимерларнинг яна бир вакили полиацетилен [-СН-] n бўлиб ҳозирги вақтда у асосан катализатор иштирокида ацетиленни полимеризация қилиш орқали олинади (1-расм). Полиацетилен плёнкалари электрохимий жараёнларда электрод сифатида ишлатилади, уларнинг сифими ва оқим зичлигини оширади. Полиацетилен плёнкалари ион конденцаторлар ва қуёш батареяларини яратишда ҳам ишлатилади. Полиацетиленнинг тузилишини ўзгартириб, яъни кучли электрон донор ёки акцепторларнинг оз миқдордаги аралашмасини киритиш орқали унинг электр ўтказувчанлигини металлларнинг электр ўтказувчанлигига етказиш мумкин [2].

Беш аъзоли гетеросиклик полимерлар полипирол, политиофен ва уларнинг хосилалари ҳам электр ўтказувчан полимерлар сифатида кенг қўлланилади (2-Зрасмлар). Масалан қайта зарядланадиган литий батареялар учун электродлар полипиролдан тайёрланган бўлиб, бундай электродларнинг асосий афзалликлари шундан иборатки жуда енгил ва юқори энергия сарфи ҳисобланади. Яна қўшимча равишда шуни айтиш мумкинкиб улардан фойдаланиш жуда осон, чунки улар батарея қувват манбаларида ишлаётганида эримайди. Тиофен асосидаги полимерлар қаттиқ электролитларга эга бўлган конденцаторлар учун электродларни, шунингдек оптик қурилмалар учун функционал қопламаларни тайёрлаш учун ишлатилади. Бундай политиофен асосида тайёрланган қопламаларда моддаларнинг оптик хусусиятларини ўзгартиришни анча енгиллаштиради ва унча қиммат бўлмаган ноорганик функционал қопламаларга нисбатан бир қатор афзалликларга эга. Юқорида кўриб ўтилган полимерлар жуда барқарор ва улар бошқа полимерлар билан биргаликдаги композитцияси орқали керакли ўтказувчанликга эга бўлган бирикмаларни хосил қилиш мумкин [3].

Тиофен ва анилинга асосланган полимерлар кимёвий жиҳатдан анча барқарор полимерлар ҳисобланади, шунинг учун улар электрохимий жараёнларда электролит эритмалари фотоэлектрларни химоя қопламаси сифатида ишлатилади. Полимер плёнкалар яримўтказгичларни фотокаррозиядан химоя қилади ва узок вақт давомида сезиларли пасаймасдан фотокуррент оқимини ушлаб туришга қодир. Органик яримўтказгич полимерларнинг синтези ҳам кимёвий ҳам электрохимий усулда амалга оширилиши мумкин. Агар чўкма шаклда кам боғланган полимерларни олиш керак бўлса, кимёвий синтез энг






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023


қулайдир. Жараён тегишли оксидловчи моддалар билан эритмаларда амалга оширилади, синтез натижасида макромолекулалар орасидаги оз миқдордаги ўзаро боғлиқлик билан эрийдиган полимерлар ҳосил бўлади.




1-расм. полацетилен



2-расм. полипирол




3-расм. политиофен




4-расм. поли-п-фенилен

Полианилиннинг кимёвий синтези учун урта реактив талаб қилинади: анилин, кислотали муҳит (сувли) ёки органик) ва оксидловчи модда. Кислотали муҳит сифатида 1мол/л хлорид ёки сульфат кислота эритмалари ва оксидловчи модда сифатида аммоний персульфат $(\text{NH}_4)_2\text{S}_2\text{O}_8$, калий персульфат $\text{K}_2\text{S}_2\text{O}_8$, килий дихромат $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$, калий бромат KBrO_3 , калий йодат KIO_3 , водород пероксиди H_2O_2 , темир III хлорид FeCl_3 ва бошқа оксидловчи моддалар ишлатилади. Реакция хона ҳарорати билан 0°C орасида содир бўлади. Полианилинни олиш реакциясини 50°C дан юқори ҳароратда ҳам олиб бориш мумкин, лекин бунда реакция унуми паст бўлади, аксинча 0°C дан паст ҳароратда реакция унуми юқори кўрсаткичга эга бўлади молекуляр масса 20000 г/мол га етиши мумкин. Реакция унумининг юқори бўлиши дастлабки реактивларнинг тозалиги ва оксидловчининг қўшилиш тезлигига боғлиқ бўлади. Юқоридаги барча омилларни ҳисобга олиш реакция унумининг ошишига олиб келади. Реакциянинг механизми радикал катион р-аминодифениламин ҳосил бўлиши билан амалга ошади ва аминодифениламин ҳосил бўлишидан кейин полианилин занжирининг ўсиши бошланади. 5-расм.




(a)





5-расм. Полианилиннинг оксидланиш полимеризация реакцисининг механизми.

Бироқ, энг оптимал синтез 1 мол/л сувли хлорид кислота эритмаси ($\text{pH} 0$ дан 2 гача), билан амалга оширилади калий персульфат каби оксидловчи ва анилиннинг мол нисбатлари 1:15 бўлганда юқори ўтказувчанликни олиш учун полианилин ҳосил бўлади. Иккиламчи реакцияларни чеклаш учун еритманинг ҳарорати 0 дан 2°C гача ушлаб турилади. Реакциянинг давомийлиги одатда 1 соатдан 2 соатгача ўзгариб туради ва тажриба учун олинган реагентларни муз солинган идиш ичига тушириб идишга аста-секин (ҳатто томчи томчи) музли сувни қўшиш билан ишчи калий персульфат эритмаси билан анилин H_2SO_4 эритмалари 0°C га қадар совитилади. Аралаштириш тахминан 1 соат давомида олиб борилади. Полимер қуёш батареяларини кремний асосидаги қуёш батареялар билан солиштирганда ишлаб чиқариш арзон, осон мослашувчан, атроф муҳитга кам таъсир кўрсатади шунинг учун янги турдаги истиқболли яримўтказгич полимер материаллар асосидаги қуёш батареяларга талаб ортмоқда. Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, яримўтказгич полимер моддалар асосида олинадиган қуёш батарея ва қувват манбаларини олиш бугунги





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

кунга келиб бутун дунё тадқиқотчи олимлар диққатини ўзига тортмоқда. Шунингдек бизнинг илмий йўналишимиз ҳам қуёш энергиясини тўғридан-тўғри электр энергиясига айлантирадиган қуёш панелларини яратиш учун ишлатиладиган электр ўтказувчан полимер моддалар синтези ва уларнинг фотохимёвий хоссаларини кенг таҳлил қилиш, юқори энергия конверциясига эришган ҳолда муқобил энергия манбаси ҳисобланган қуёш энергиясидан арзон, сифатли, экологик тоза электр энергияси ишлаб чиқариш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Компан М. Е., Сапурина И.Ю., Шишов М.А., // Наблюдение краевой фотолюминесценции органического полупроводника – полианилина // Физика твердого тела, 2013, том 55, вып. 6, С. 1221-1224.
2. Aysegul Gok, Bekir Sari, Muzaffer Talu, // International Journal of Polymer Anal //Charact., 11: 227–238, (2006).
3. Stejskal J., Gilbert R.G. Polyaniline. Preparation of a conducting polymer (IUPAC Technical Report) // Pure Appl. Chem. – 2002. – V. 74. – № 5. – P. 857–867.
4. Т.В. Семенистая, В.В. Петров, Т.А. Бедная // Энергоэффективные сенсоры газов на основе нанокompозитных органических полупроводников // Таганрог: УДК 539.217.5:544.169, С.12-14. (2013).





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

Elektrolit eritmalarining elektr o'tkazuvchanligini innovatsion usullar yordamida aniqlash.

Jo'rayev.I.Y

Termiz State University

Davlatova.M.U

Termiz State University

Azimqulova.R.D

Termiz State University

Madiyev.A.M

Termiz State University


E-mail: azizbekmadiyev999@gmail.com

ilkhomjuraev600@gmail.com

Kalit so'zlar: kimyoviy bog', elektrolitlar, protolitik reaksiya, solvoliz, protogen erituvchilar.


Annotatsiya: Ushbu maqolada elektrolit eritmalarining elektr o'tkazuvchanligi haqida so'z yuritilgan. Termodinamikaning yutuqlaridan foydalangan holda kimyoviy tajribalar o'tkazmasdan turib kimyoviy muvozanatlarni hisoblash mumkinligini ko'rsatilgan.

“Fizikaviy kimyo” kimyodagi ayrim muammolarni hal etishda termodinamik usullarni qo'llash orqali XX asrning boshida fan sifatida vujudga keldi. Bunday yondoshuv juda ham samarali bo'lib chiqdi va empirik kimyoning o'rganib qolgan tamoyillarini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu esa kimyoviy o'zgarishlar muammosiga umuman yangicha qarash hosil qildi. Moddalarning kimyoviy reaksiyalarga kirishi faqat reagentlarning tabiatigagina bog'liq bo'lmasdan, balki jarayonni olib borishning fizikaviy sharoitlariga, ya'ni bosim va haroratga ham bog'liqligini isbotlab berishga muvaffaq bo'lindi. Muvozanatdagi sistemalar uchun bunday bog'lig'likni miqdoran ifodalashga erishildi va bu zamonaviy kimyoviy texnologiyaning rivojlanishiga asos bo'ldi. Termodinamikaning yutuqlaridan yana biri kimyoviy tajribalar o'tkazmasdan turib kimyoviy muvozanatlarni hisoblash mumkinligini ko'rsatilganidir. Alohida reagentlarining termodinamik xossalari haqidagi ma'lumotlarga asoslanib reaksiya mahsulotlarining unumlarini oldindan aytib berish imkoniyati paydo bo'ldi. Modda





tuzilishi nazariyasining rivojlanishi va kvant mexanikasining paydo bo'lishi termodinamikaning kimyodagi o'rnini kengaytirdi. Zamonaviy statistik termodinamika molekularning tuzilishi haqidagi ma'lumotlarni jalb qilgan holda xuddi shu muammolarni hal qiladi. Bu esa, moddaning kimyoviy o'zgarishlari muammosini muhokama qilishda, reagent molekularining xossalari haqidagi model tushunchalarni reagentlarning termodinamik funksiyalari qiymatlariga tayanuvchi fenomenologik termodinamik yondoshuv bilan birlashtirishga olib keldi. Shu sababli zamonaviy fizikaviy kimyo kursi klassik va statistik termodinamika natijalarining umumlashuvidir, desak adashmaymiz. Nazariy fizikaning ushbu qismlari klassik bo'lib, u hech qachon eskirmaydi, aksincha vaqt o'tishi bilan ularni amaliyotga qo'llash sohalari o'zgaradi, xalos. "Fizikaviy kimyo" fanining ta'rifi birinchi bor 1752-yil M.V.Lomonosov (1711-1765) tomonidan berilgan: fizikaviy kimyo fani kimyoviy hodisalarni fizika fani yordamida o'rganuvchi bu hodisalarning qonuniyallarini nazariy jihatdan ochib beruvchi hamda tushuntiruvchi fandır. M.V.Lomonosov fizikaviy kimyoni "kimyoning falsafasi" deb aytgan. Uning nazariy va tajribaviy tadqiqotlari hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan kashfiyotlarga olib kelgan. Lomonosovning atomistik tushunchalari issiqlikning kinetik tabiati haqidagi xulosaga olib keldi va u "eng katta va oxirgi sovuqlik darajasi" mavjudligini tahmin qildi, ya'ni zarrachalarning harakati to'liq to'xtashiga mos keluvchi juda kichik harorat borligini ta'kidladi hamda termodinamika ikkinchi qonunining ta'riflaridan bir bo'lmish "issiqlik sovuqroq jismdan issiqroq jismga o'z-o'zidan o'ta olmasligini" ta'kidlagan. XIX asrning boshlarida Angliyada Daltonning(1801), Fransiyada Gey-Lyussakning (1802), Italiyada Avogadroning (1811) ishlari natijasida gazsimon holatning qonunlari kashf etiladi va atomistik tushunchalar yana ham rivojlandi. Gessning termokimyo bo'yicha qilgan ishlari ham ushbu davrga tegishlidir. Galvanik elementlar, elektroliz, elektrolitlarda tokni tashib o'tish tadqiqotlari tufayli elektrokimyoning asoslari tashkil etiladi. 1799-yilda Italiyada Galvani va Volt galvanik element yaratdilar. 1802- yil V.V.Petrov elektr yoyi hodisasini ochdi. 1805- yil Grotgus (Rossiya) elektroliz nazariyasining asoslarini ishlab chiqdi. 1800- yil Devi moddalar ta'sirlashishining elektrokimyoviy nazariyasini ilgari surdi va kimyoviy tadqiqotlarda elektrolizni keng qo'ladi. Faradey 1833-1834- yillarda elektrolizning miqdoriy qonunlarini ta'rifladi. Yakobi 1836- yil elektroliz jarayonini tajribaga qo'llab, galvanoplastikani kashf etadi. XIX asrning ikkinchi yarmida Guldberg va Vaage hamda Gibb kimyoviy muvozanat






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

haqidagi ta'limotni rivojlantirdilar. Le Shatele tashqi sharoit o'zgarishi bilan muvozanatning siljishi haqidagi umumiy prinsiplarini yaratdi. Vant-Goff kimyoviy muvozanat nazariyasini rivojlantirdi. U suyultirilgan eritmalarning miqdoriy nazariyasini ham ishlab chiqqan. Gittorf va Kolraush (Germaniya) eritmalarda elektr tokini tashib o'tishni o'rgandilar. S. Arrenius 1883-1887- yillarda elektrolitik dissotsilanish nazariyasini rivojlantirdi.

XIX asrning oxiridagi buyuk kashfiyotlar atom tuzilishining murakkabligini isbotladi va fizikaviy kimyoning rivojlanishiga juda katta hissa qo'shdi. Ularga Perren (1895) va Tomson (1897) tomonidan elektronning kashf qilinishi, 1895- yil RentgenX-nurlarni va 1896- yil Bekkerel radioaktivlik hodisasini kashf etishini aytish mumkin. Bundan tashqari Plank (1900) nurning kvant tabiatini, Lebedev (1889) nur bosimi mavjudligini hamda Per Kyuri va Mariya Kyuri (Skladovskaya) (1905-1920) tomonidan radioaktivlik hodisasini o'rganishni misol qilsa bo'ladi. XX asming boshiga kelib fizikaviy kimyo modda tuzilishi, kimyoviy termodinamika, eritmalar, kimyoviy kinetika va elektrokimyolarni o'rganuvchi fan sifatida namoyon bo'ldi. Yangi nazariy usullarning qo'llanilishi bilan atom, molekula va kristallarning tuzilishini tadqiqot qilish birinchi o'ringa chiqdi. Ushbu sohada Rezerford tomonidan taklif qilingan atomning yadro tuzilishi (1911) va Bor (1913) tomonidan vodorod atomining birinchi miqdoriy nazariyasining yaratilishi juda katta yutuq bo'ldi. Kimyoviy bog'ning tabiati va molekulalarning tuzilishini o'rganish atom tuzilishini o'rganish bilan birgalikda olib borildi. 1920-yillarda Kossel va Lyuis kimyoviy bog'ning elektron nazariyasini ishlab chiqdilar. 1927-yilda Gey va London kimyoviy bog'ning kvant mexanik nazariyasini rivojlantirdilar. XX asrning o'rtalarida kimyoviy reaksiyaning tezligi haqida ta'limot, ya'ni kimyoviy kinetika jadal rivojlandi va u molekulalar tuzilishi va molekuladagi atomlararo bog'larning mustahkamligi bilan bog'liq ravishda olib borildi. Fizikaviy kimyoning yangi bo'limlari paydo bo'ldi va muvaffaqiyatli rivojlandi. Ularning ayrimlari alohida fan sifatida universitetlarda o'rganilmoqda. Masalan, kvant kimyo, modda tuzilishi, kinetika va kataliz, elektrokimyo, radiatsion kimyo, radiokimyo, magnetokimyo, yuqori molekulyar birikmalarning fizik kimyosi, silikatlarning fizik kimyosi va boshqalar.

I-bob. Asosiy qism.


Elektrolit eritmalarining xossalari





Suyultirilgan eritmalarning barcha umumiy xossalari (to'yingan bug' bosimining nisbiy pasayishi, qaynash haroratining ortishi, muzlash haroratining pasayishi, osmotik bosim) erigan moddaning molyar qismiga chiziqli bog'langan (erigan modda zarrachalarining soniga proporsional ravishda o'zgaradi) va uning tabiatiga bog'liq emas. Ushbu ta'rif suyultirilgan eritmalar uchun Raul va Vant-Goffning umumlashgan qonunini ifodalaydi. Bunday umumiy qonuniyat organik moddalarning suvdagi va organik erituvchilardagi eritmaları uchun to'g'ri bo'lib chiqdi. Ammo tuzlar, kislotalar va ishqorlarni suvdagi eritmalarining umumiy (kolligativ) xossalari yuqoridagi qonuniyatga bo'ysunmasligi aniqlandi. Masalan, NaCl molyar eritmasi muzlash haroratining pasayishi suvning krioskopik doimiysidan ($1,86^\circ$) deyarli ikki baravar yuqori ($3,36^\circ$). Demak kislota, ishqor va tuzlarning suvli eritmalaridagi zarrachalarning soni eritmaning molyar konsentratsiyasiga mos kelmaydi. Bundan tashqari, suyultirilgan eritmalar qonunlaridan chetlanuvchi eritmalar organik moddalarning suvdagi eritmalariga nisbatan ancha yuqori elektr o'tkazuvchanlikka ega. Bu esa eritmada zaryadlangan zarrachalar borligidan darak beradi. Eritmalari elektr tokini o'tkazuvchi bunday moddalar *elektrolitlar* deb ataladi. Elektrolvurning xossalari elektrolitik dissotsilanish nazairiyasining asoschisi Arrenius (1887) tomonidan ko'rib chiqilgan va umumlashtirilgan.

Erituvchining qutbli molekullari bilan erigan modda zarrachalari orasidagi ta'sir natijasida elektrolitik dissotsilanish sodir bo'ladi. Bunday ta'sir hattoki kovalent bog'lari ham, masalan, vodorod xloridni qutblantiradi. Ushbu gazni suvda eritayotganda dielektrik doimiysi katta bo'lgan muhitda H-Cl bog'ining kuchsizlanishi hisobiga vodorod va xlor ionlari hosil bo'ladi. Gidratlanish natijasida ionlar eritmaga o'tadi. Ion kristallarini (masalan, NaCl) suvda eritayotganda ham xuddi shunday jarayon kuzatiladi. NaCl ning kristall panjarasida Na^+ va Cl^- ionlari bo'lmasa ham, erituvchining qutbli molekullari bilan ta'siriashishi kristalldagi bog'larning qutblanishiga, ularning kuchsizlanishiga va zarrachalarning gidratlangan ionlar hosil qilib eritmaga o'tishiga sharoit yaratadi. Gidratlanish jarayoni kuchli ekzotermik bo'lib, entalpiya kamayishi bilan o'z-o'zidan boradi. Odatda, gidratlanish darajasi (har bir ionni o'rab olgan erituvchi molekullarining miqdori) juda katta bo'ladi. Faqat kislotaning ionlanishida gidratlanish darajasi 1 ga teng, bu esa vodorod ionining kichik o'lchami bilan bog'liq. Gidratlanish jarayonida proton H_2O molekulasi sferasiga kirib, giroksoniy






H_3O^+ ionini hosil qiladi. Yangi kovalent bog' kislorodning erkin elektron jufti hisobiga donor-akseptor mexanizmi bo'yicha hosil bo'lib, to'yingan bo'ladi.

Elektrolitlarning ushbu qonunlardan chetlanishini baholash uchun Vant-Goff osmotik koeffitsiyent i tushunchasini kiritishni taklif qildi:

$$i = \frac{P_{toj.}}{P_{noz.}} = \frac{\Delta T_{toj.}}{\Delta T_{noz.}} = \frac{\Delta T_{muz.toj.}}{\Delta T_{muz.noz.}} = \frac{\Delta P_{toj.}}{\Delta P_{noz.}}$$

tenglama elektrolit eritmalarining termodinamik xossalari haqidagi tajriba malumotlari asosida osmotik koeffitsiyentni hisoblash uchun ishlatilishi mumkin. Eng sodda elektrolitlar uchun osmotik koeffitsiyent $2 > i > 1$, murakkabroq elektrolitlar uchun $3 > i > 2$ ekanligi tajribada aniqlangan. Bunday chetlanishlar ko'proq yoki kamroq darajada bo'lib barcha elektrolitlar uchun tegishlidir. Demak elektrolit eritmalarining noelektrolitlar uchun o'rnatilgan qonunlardan chetlanishi qandaydir umumiy sabablardan kelib chiqadi. Yuqorida aytganimizdek, noelektrolitlar elektr tokini o'tkazmaydi, elektrolit eritmalariga esa elektr o'tkazuvchanlik xosdir. Elektrolitlarga tuzlar, mineral va organik kislotalar hamda asoslar kiradi. Ushbu moddalarning hammasi muhim amaliy ahamiyatga ega va ularning xossalari to'liq o'rganilgan.

Ma'lumki, elektr tokini o'tkazuvchilar birinchi va ikkinchi tur o'tkazgichlarga bo'linadi. Birinchi tur o'tkazgichlarda, ya'ni metallarda, elektr tokini elektronlar tashib o'tadi. Bunday o'tkazgichlardan tok o'tishining o'ziga xos tomoni kimyoviy o'zgarishlarning kuzatilmasligidadir (faqat issiqlik ajralib chiqadi). Ikkinchi tur o'tkazgichlarda, ya'ni elektrolit eritmalarida, elektr tokini ionlar tashib o'tadi. Ikkinchi tur o'tkazgichlardan o'zgarish tokning ortishi faqat issiqlik ajralishini emas, balki kimyoviy o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi (elektroliz hodisasi). O'tkazgichlarning faqat birinchi va ikkinchi turlarga bo'linishi to'liq sinflanish emasligini eslatib o'tish lozim, chunki ulardan tashqari tabiatda yarim o'tkazgichlar (elektron yoki teshikli o'tkazuvchanlik) va aralash (elektron va ion) o'tkazuvchanlikka ega eritma va turli moddalarning suyuqlanmalari mavjud. Elektrolit eritmalaridan o'zgarish elektr tokining o'tishi ionlarning elektr maydonning qutblariga yo'nalgan harakati bilan. Ya'ni musbat zaryadlangan zarrachalar - kationlarning manfiy qutbga -katodga va manfiy zaryadlangan zarrachalar - anionlarning musbat qutbga - anodga harakati bilan





belgilanadi. XIX asrning oxirigacha elektrolit eritmalarida tashqi elektr maydonning ta'sirida elektrolit molekularining parchalanishi natijasida ionlar paydo bo'ladi deb hisoblangan. Ammo elektrolit eritmalarining termodinamik xossalarini o'rganish natijalari ushbu qarashlarni o'zgartirishga olib keldi.


Elektrolitik dissotsilanish nazariyasining asosiy holatlari

Elektrolit eritmalarining termodinamik xossalarini tushuntirish uchun Arrenius elektrolitlarning molekulari ionlarga elektr maydoni ta'sirida emas, balki eritilgandayoq ajraladi, deb taxmin qildi. Elektrolit molekularining ionlarga bunday ajralishini Arrenius *elektrolitik dissotsilanish* deb atadi. Ushbu gipoteza keyinchalik kimyoda keng qo'llaniladigan nazariyaga aylandi. Xususan, fizikaviy

Kimyoning ko'p qismlari elektrolitik dissotsilanish nazariyasiga asoslangan. Bundan tashqari, ushbu nazariya koordinasion birikmalar kimyosida hamda kislot va asoslar nazariyalarini tushuntirishda katta ahamiyatga ega. Elektrolit molekularining eritmada ionlarga ajralishi nima uchun ushbu eritmalarining termodinamik xossalari kutilayotgandan kattaroq natija berishini tushuntiradi. Haqiqatan ham, agar eritma 1 l da C g-mol CH_3COOH tutsa, uning osmotik bosimi Vont-Goff qonuni bo'yicha $P_{naz} = CRT$ ga teng bo'ladi. Faraz qilaylik CH_3COOH ning har bir molekulari 2 ta ionga ajraladi. Unda eritmaning umumiy konsentratsiyasi $2C$ bo'ladi. Osmotik bosim erigan modda zarrachalarining miqdoriga bog'liq bo'lganligi sababli, amaldagi osmotik bosim $P_{taj} = 2CRT$ ga teng bo'lishi kerak, osmotik koeffitsiyent esa $i=2$. Haqiqatda esa, osmotik koeffitsiyent $2 > i > 1$ oraligida o'zgaradi va dissotsilanish kuzatilmagan holatdagidan kattaroq hamda to'liq dissotsilanish kuzatilgan holdan kichikroq qiymatlarni oladi. Ushbu natijalardan Arrenius elektrolitik dissotsilanish oxirigacha bormasligi va eritmada ionlar bilan bir vaqtda dissotsilanmagan molekular ham mavjud ekanligi haqida xulosa qildi. Shunday qilib, elektrolitik dissotsilanish nazariyasi asosida quyidagi taxminlar yotadi:

- elektrolit eritmalarida uning molekulari ionlarga ajraladi;
- elektrolitlar suvli eritmalarining elektr o'tkazuvchanligi eritmada ionlarning umumiy konsentratsiyasiga to'g'ri proporsional;
- elektrolitik dissotsilanish jarayoni qaytardir.


Arrenius taklif qilgan gipoteza avvaliga ko'p e'tirozlarni keltirib chiqardi, buning sababi olimlarning ionlar bilan atomlarning xossalari orasidagi prinsipsial farqlarni





tushunmaganlaridir. Shu sababli, Arrenius ko'p yillar davomida elektrolitik dissotsilanish nazariyasini tizimli ravishda asoslashga majbur bo'ldi.

Elektrolitik dissotsilanishni keltirib chiqaruvchi sabablar. Elektrolitik dissotsilanish mexanizmini ion panjaraga ega moddalar (*NaCl* va boshqalar) uchun tushuntirish oson, chunki ularda ionlar qattiq holatda ham bo'ladi. Bunday elektrolitlar eriyotganda faqat ionlar orasidagi tortilish kuchi kamayadi, xolos. Buni soddalashtirgan holda muhit dielektrik singdiruvchanligining o'zgarishi bilan tushuntirish mumkin. Haqiqatdan ham, Kulon qonuniga muvofiq kristall panjarada, ikkita bir zaryadli ionlar orasidagi tortilish kuchi $f = \frac{e^2}{er^2}$ ga teng, bu yerda: e - elektronning zaryadi; r - ionlarning kristallokimyoviy radiuslarining yig'indisiga teng bo'lgan panjaraning ionlari orasidagi masofa; e - muhitning dielektrik singdiruvchanligi. Kristallning havodan ($e=1$) erituvchiga, masalan, suvga $e=81$ o'tishida ionlar orasidagi tortilish kuchi 81 marta kamayadi va ularni panjaradagi tebranishlarining (issiqlik tebranishlari) energiyasi pasayib, panjaraning buzilishiga va ionlarning ozod bo'lishiga olib keladi. Ionlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchlarining kamayishidan tashqari, ularning erituvchi bilan kimyoviy ta'sirlashishi (solvatlanish) ham juda ahamiyatlidir. Shunday qilib, ion kristallarda elektrolitik dissotsilanish juda ham tabiiydir. Qattiq holatda molekulyar panjaraga ega elektrolitlarning dissotsilanish mexanizmi murakkabroq. Ushbu jarayon elektrolitning qutbli molekulari bilan erituvchi molekularining dipoli o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali tushuntiriladi. Dipollarning elektrolit molekulasiga ta'siri natijasida ionlar hosil bo'ladi va ular erituvchi molekulari bilan ta'sirlashib mustahkam solvatlarni hosil qiladi. Shunday qilib, har bir ionning atrofida eritmada mustahkam solvat qavat joylashadi va ushbu qavat ionlarning dissotsilanmagan molekulargacha birlashishiga to'sqinlik qiladi. Tuzlarning solvatlanish issiqligi oddiy kimyoviy reaksiyalarning issiqlik effektlaridan ham yuqori bo'lib, yuzlab kkal/mol ga ega. Bunday yuqori solvatlanish issiqligi ionlarning kichik ichki energiya bilan tavsiflanuvchi juda mustahkam solvatlar hosil qilishini ko'rsatadi. Ionning zaryadi qanchalik yuqori va radiusi qanchalik kichik bo'lsa, solvatlanish issiqligi shunchalik yuqori bo'lishi aniqlangan. Ionlarning solvatlanishi erituvchining molekulyar strukturasi buzib yuborishini alohida ta'kidlash lozim, suvli eritmalar uchun buning ahamiyati ayniqsa katta.





Рота командири Саидкаримнинг взводи олдига муҳим вазифа қўйди. “Днепрнинг ўнг қирғоғига ўтиб, душман ўт очиш нуқталарини яқсон қиласиз ва бошқа бўлинмаларнинг дарёдан ўтиб олишларини таъмин этасиз!”. Днепр соҳилларига Саидкарим взводи яқинлашганда Саидкарим танкига душман тарафдан талофат етказилди кейин, у ёнаётган танкдан экипаж азоларини эвакуация қилди. Днепрга биринчи бўлиб етиб борди ва чўкка тушиб, дарё сувидан симириб-симириб ичди. Ўзига юклатилган вазифани бажариш учун қайиқ ҳам, паром ҳам йўқ эди кутилмаганда ударёдан сузиб ўтишга қарор қилди. У, ўз экипаж азоларига: ”Менинг ортимдан!” деб команда берди ва ўзи биринчи бўлиб сузиб кетди. Унинг орқасидан экипаж аъзолари ҳамсузиб кетдилар. Саидкарим ҳали юз метр ҳам сузиб боргани йўқ эди, оқиб келаётган ходага кўзи тушиб қолди. “Жуда соз, худди осмондан тушгандай” деб ўйлади. У, ходани экипаж аъзолари билан ушлашиб қирғоқга яқинлашаверди. Атрофда ўқларнинг товуши тобораавжига минар, сувга тушган мина ва снарядлар шовқин-сурон билан ёриларди. Немислар жангчиларимиз устига ўқ ёғдиришни бир минут ҳам тўхтатмадилар.

Саидкарим ўз экипаж азолари билан Днепрнинг ўнг қирғоғига ўтганда, немис пулемёти ўқ уза бошлади. Пулемёт бута тагига яширинган эди. Унинг ёнига яқинлашишнинг иложи йўқ. Душман пулемётчисига ҳамма худуд қафтдай кўриниб турибди. Жангчилар бошларини кўтара олмай соҳилдаги чуқурларга ётиб олдилар. Саидкарим уларга ҳозирча бошларини кўтармай ётиш тўғрисида буйруқ берди, ўзи боши ва тирсаги билан қумни ёриб, душман пулемёти томонга эмаклаб кетди. Немислар тўхтовсиз ўт очмоқда. Ўқлар Саидкаримнинг ёнига тушади. Пулемётга 20 метрча қолганда у иккита граната ирғитди ва ўрнидан тез турди. “Менинг оркамдан, олға!” деб қичқириб буйруқ берди. Жангчилар унинг кетидан югурдилар. Душман пулемётчилари яқсон этилган, пулемёт эса мажақланган эди.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

Саидкарим бургутдай учиб бормоқда. Жангчилар унинг орқасидан югуриб борар эдилар. Жангчилардан бири Саидкаримнинг орқасидан: “Ўртоқ сержант, яраланибсиз, кийимингиз қонга беланмоқда” деган эди, у “хечқиси йўқ, салгина ялаб ўтди” деб жавоб берди ва йўлида давом этди.

Саидкарим ўз жангчилари билан душман траншеясига бостириб кирди. Найзобозлик жанги қизиб кетди. Саидкаримтўрт немисни найза санчиб ўлдирди иккитасининг бошини мажақлаб ташлади. Немислар истехкомдан чиқиб қоча бошладилар. Улар тирик қутулиб кетмасин! Йўлини тўсингиз! –деб команда берди. Қочиб кетаётган немисларнинг йўлини Саидкаримнинг ўзи биринчи бўлиб тўсди ва автоматидан сидирасига ўқ узди. Унинг ўзи яна 10 немис аскарини ер тишлатди. Бутун взвод 67 немисни ўлдирди ва қолганларини асир олди. Саидкаримнинг взводи Днепрнинг ўнг қирғоғига мустаҳкам ўрнашиб олиб, душманнинг қарши атакларини қайтариб турди ва бутун батальоннинг дарёдан муваффақиятли ўтиб олишини таъминлади.


Ўртоқлари Саидкаримнинг ярасини боғлаётганларида шундай деди: “Қон кўп кетган бўлса ҳам душманни охиригача тугатишга куч-қувватим етади. Менинг жанг майдонидан-жангчилар сафидан чиқара оладиган немис ҳали дунёга келган эмас. Ҳали кўп фрицнинг ажали менинг кўлимда”.

СССР Олий Совети Президиумининг 1943 йил 16 октябрида чиқарган фармони билан Ўзбекистон халқининг вафодор ўғли сержант Саидкарим Қосимтураевга Совет Иттифоқи Қахрамони унвони берилди ва Ленин ордени билан Олтин юлдуз медали топширилди[4].

Ҳулоса ўрнида шуни айтиш керакки, бугунги кунда Иккинчи жаҳон урушида фашизм устидан қозонилган буюк ғалабага етмиш етти йил тўлади. Бу урушда иштирок этган Саидкарим Қосимтураевдек фахрийлар номини эъзозлаш, улуғлаш ва хотирлаш умуминсоний ўлмас қадрият бўлмоғи лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Герои Советского Союза - Узбекистанцы. Ташкент, 1984
2. Герои Советского Союза: крат.биогр. слов. Т.1. – Москва, 1987
3. Гриченко И.Т., Головин Н.М. Подвиг. - Харьков: Прапор, 1983.
4. М.Ю.Быкова-“Победа сталинских соколов”. Издат. “ЯУЗА-ЭКСМО”, 2008йил.





HARBIY XIZMATCHILARNI BOSHQARUVCHANLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH



podpolkovnik **Abdullayev Umarbek Ibragimovich**,
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Qurollanish va otish kafedrasida tank bo'linmalari otish
tayyorgarligi sikli katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalarning boshqaruvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu jarayonda uchrayotgan muammolar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshqaruvchanlik qobiliyati,, tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiya, zamonaviy yondoshuvlar.

Kirish

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.


Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur.

Shuning uchun ham ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yunalish deb yondashiladi.

“Ta'lim to'g'risida” gi Qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan [2].

Shuningdek, mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy meyoriy asoslar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni [6], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish





konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori [3], shuningdek, mustaqil ish talqiniga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qila turib, shuni aytish mumkinki, o'quv jarayonida uning ahamiyatini avvaldan anglab yetganlarini ko'rish mumkin.

F.A.Disterveg o'quvchilarni aqliy kuchlarini rivojlantirish g'oyasini ko'rib chiqib, shuni ta'kidlagan: "rivojlanish va ta'lim hech bir insonga berilishi va yetkazilishi mumkin emas. Har kim bunga shaxsiy faoliyati bilan erishishi kerak.

Inson o'zining mustaqil yo'l bilan egallamagani - uniki hisoblanmaydi" deb fikr bildirgan [9].

Buyuk mutafakkirimiz Abdulla Avloniyning fikricha, - «Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan taqdir(orzu) qilib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan va vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir.

Fikr insonni sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'lur»- deb yozadi o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida.

Yana shu asarida badan tarbiyasi bilan bir qatorda fikr tarbiyasiga ham alohida ahamiyat beradi.

Uning takidlashicha, fikr tarbiyasi " muallimning yordamiga so'ng darajada muxtojdir" va inson hayotida muhim ahamiyatga ega: "Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa, Xanjar olmosdan bo'lur o'tkur.

Fikrning oynasi olursa zang, Ruhi ravshan zamir o'lur benur" deb aytib o'tganlar [10].

L.V.Golish va D.M.Fayzullayevalar o'zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur ekanligini asoslab berishgan [7].

M.Barakayevning ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini o'rganib, "Mustaqil ta'lim – oliy ta'lim tizimida ta'limning shunday bir shaklidirki, bunda talabalarning o'quv faoliyati pedagog tomonidan boshqarilib, topshiriqlar beriladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi" deb ta'kidlaydi [8].

Tadqiqot metodologiyasi Mazkur ishda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlash faoliyatini rivojlantirish omillaridan foydalanishning mazmuni maksadi, vazifalari va tamoyillari o'rganildi.





Tadkikot davomida tizimli yondashuv va tahlil kilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash,


zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish borasida katta ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quvushlubiy materiallarni keng joriy etish"[1] masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir.

Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonidatalabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va





texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.


Shunday ekan, oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Yuksak malakali mutaxassislarni iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy xamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish ..." [3] ta'kidlanib, muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish asosiy muammolar qatorida va ushbu muaamolardan kelib chiqib, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etilgan yangi avlodini yaratish, magistratura ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish bosh maqsad bo'lib qolmoqda.





Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yana bir jihati muhimki, oliy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun maxsus fanlarni o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

Har qanday jamiyatda bo'lganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatga bardosh bera oladigan malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi.

Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham so'nggi yillarda keng ko'lamli ishlar qilindi va qilinmoqda.

Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim muassasalarida mustaqil ishni qanday bajarishni har bir talabaning o'zi amalga oshiradi.

Muvafaqqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak.

Buni esa talabaning o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi [4].

Jamiyatning barcha jabhalaridagi muammolar, o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarida talabalarini tayyorlash jarayoniga ham ta'sir qilib va yangidan yangi talablarni qo'yadi.

Hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega, o'zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislarga, kadrlarga ehtiyoj katta.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida talabalaridan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi.

Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o'rgatish orqali ta'minlanadi.





Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim, egallangan ko'nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga imkon beradi.

Ta'lim oluvchilarni faollashtirish ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida 2030 yilga qadar respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi.

Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir.

Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan.

Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgan deb aytish mumkin.

Kredit-modul tizimining joriy etilishi o'qituvchi va talabaning hamkorlikda ishlashida muhim omil hisoblanadi.

Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi.

Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi.

Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi.

Xulosa va takliflari quyidagicha beradi:

Oliy ta'lim muassasalari ta'lim jarayonida talabalarning boshqaruvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy masalardan hisoblanadi.

Bu borada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Birinchidan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar negizida ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda





qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishgan novator o'qituvchilarning ishlarini ommalashtirish, tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yiishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/>
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'RQ-637-son. 2020-yil 23-sentabr. <https://lex.uz/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil, 21 aprel, № 79 (6773).
4. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. - T.: Fanva texnologiya, 2007. -271 b.
5. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqi. 2016-yil, 15-dekabr. <https://kun.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. <https://lex.uz/>
7. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: TDIU, 2014.



Characteristics of Lending to Agricultural Enterprises

Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich

Doctor of Philosophy in Economics (PHD) acting as associate professor Termez state university

Alimqulov Akmal Abduxalim o'g'li

1st year graduate student of the Termiz University of Economics and Service

Abstract:

This article aims to provide a detailed analysis of the characteristics of lending to agricultural enterprises. Following the IMRAD (Introduction, Methods, Results, and Discussion) structure, this study examines the unique features and challenges associated with agricultural lending. It presents key statistics, tables, and annotations to shed light on the current landscape of lending in the agricultural sector. By understanding these characteristics, policymakers, financial institutions, and stakeholders can make informed decisions to support sustainable agricultural development.

Keywords: agricultural enterprises, lending, capital, financing, sustainable growth.

Introduction:

The agriculture sector plays a vital role in global economies, ensuring food security, employment, and rural development. However, agricultural enterprises often face numerous challenges, including limited access to capital and financing. Lending to agricultural enterprises can bridge this gap and unleash the sector's potential for sustainable growth. This article examines the importance of lending to agricultural enterprises, explores key statistics and trends, and highlights the benefits and challenges associated with agricultural lending.

Methods:

The methods section describes the approach used to gather data and analyze the characteristics of lending to agricultural enterprises. It mentions the sources of data, such as government reports, international organizations, and academic research.

Results:

This section presents key statistics and tables related to the characteristics of lending to agricultural enterprises. The results are presented in a clear and concise manner to facilitate understanding and interpretation.

Importance of Lending to Agricultural Enterprises:

Access to Capital: Agricultural enterprises require sufficient capital to invest in modern machinery, irrigation systems, and technology. Lending enables these enterprises to acquire the necessary resources and infrastructure, boosting productivity and efficiency.

Risk Management: Agricultural activities are subject to various risks such as weather fluctuations, pests, and market volatility. Lending provides a financial cushion to manage these risks through insurance coverage, hedging tools, and diversification strategies.

Expansion and Diversification: Agricultural enterprises often need to expand their operations or diversify into new products or markets. Lending facilitates such initiatives by offering funds for land acquisition, research and development, and marketing campaigns.

Statistics and Trends:

Table 1: Agricultural Lending Statistics (Source: FAO, 2022)

Year	Agricultural Loan Volume (USD billions)
2018	485
2019	520
2020	550
2021	590
2022	630

The data presented in Table 1 indicates a steady increase in global agricultural loan volumes from 2018 to 2022. The figures show a positive trend, highlighting the growing importance of lending to agricultural enterprises as a means of supporting their financial needs and fostering sustainable growth in the sector.



Table 2: Types of Agricultural Loans (Source: Adapted from World Bank, 2021)

Loan Type	Description
Operating Loans	Short-term loans for day-to-day expenses
Investment Loans	Medium to long-term loans for capital investments
Equipment Financing	Loans specifically for purchasing agricultural machinery
Livestock Loans	Loans for livestock purchases or breeding programs
Value Chain Financing	Loans to support the entire agricultural value chain
Sustainable Agriculture	Loans promoting environmentally friendly practices

Key Benefits of Agricultural Lending:

1. Economic Growth: Increased lending to agricultural enterprises drives economic growth by creating employment opportunities, boosting rural income, and stimulating related industries such as manufacturing and transportation.
2. Food Security: Adequate financing enables agricultural enterprises to enhance production capacity, improve infrastructure, and adopt modern farming techniques. This, in turn, ensures a stable and sufficient food supply, contributing to global food security.
3. Sustainable Development: Lending to agricultural enterprises promotes sustainable practices such as organic farming, water conservation, and agroforestry. Financial institutions can encourage borrowers to adopt environmentally friendly techniques by offering preferential loan terms or green financing options.

Challenges in Agricultural Lending:



1. **High Risk Profile:** Agricultural enterprises are exposed to numerous risks, including unpredictable weather patterns, pest infestations, and price fluctuations. These risks make lenders cautious, leading to higher interest rates and stricter loan approval criteria.

2. **Lack of Financial Literacy:** Many small-scale farmers and agricultural entrepreneurs lack the financial literacy necessary to navigate the lending process effectively. Financial institutions should provide tailored training and educational resources to empower borrowers with financial management skills.


3. **Collateral Constraints:** Agricultural assets, such as crops and livestock, are subject to perishability and market volatility, making them less desirable as collateral. Innovative approaches, such as index-based insurance or warehouse receipt systems, can help mitigate collateral challenges and increase access to financing.

In Uzbekistan village in the farm activity showing entrepreneurs credit with of support institutional forms not only village farm products work release of financing returnable sources to provide need Maybe food products again work process, network many p functionality and him country of the economy priority network as admit get the right giver wide functions from the system come comes out

In our country economic of laws action to do account received without village to the farm to be given credit state by in order put work developed village, village farm products work release process financial to provide for condition - conditions to create directed state effect I 'm sorry defined of means collective structure whole and consistent collection through done increase defined. (Table 1).

Table 3 Entrepreneurs lending system in order put state and market mechanism elements

Credit elements i	Market mechanism according to	State by in order put mechanism according to
The goal	Benefit get	Case A for material and social conditions which provides financial and credit relationships support





Creditors	Commerce banks	State in support of organize done specialized finance and credit institutions (credit cooperatives , microfinance organizations) and commerce banks
In order put object	Village in the farm loan forms of movement of capital	Village economy work producers credit with of support institutional forms
Debt of recipients payment to cover level	private homestead and village farm enterprises ; another debt recipients ;	Village economy work manufacturers all categories
Resources	deposit funds , population deposits	finance market funds , budget funds
Principle	Funds useful placement , risks minimize , of profit growth provide	Lending borders expansion , debt of recipients credit resources complete to use provide
Credit to be paid provide	Debt of the recipient financial and economic to the situation strictly requirements , credit warranty	Financial recovery and debt again make up procedures , guarantee and insurance schemes





Percent rate	Credit of operations profitability indicators will give	Credit of operations profitability without reduction , it is subsidized and credit existence provides
Credit danger	obligations provide methods because of is minimized	State by support powered credit system efficient infrastructure activity because of is shortened

Discussion:

The discussion section delves into the characteristics and challenges associated with lending to agricultural enterprises. It explores the following key points:

Risk Assessment:

Agricultural lending involves inherent risks such as weather uncertainties, market fluctuations, and crop failure. Financial institutions must develop robust risk assessment models to accurately evaluate the creditworthiness of borrowers and manage potential risks effectively.

Collateral Constraints:


The nature of agricultural assets, including crops and livestock, poses challenges in terms of collateral. Financial institutions can explore alternative collateral options such as warehouse receipts or index-based insurance to address this issue.

Seasonality and Cash Flow:

Agricultural enterprises often face seasonal fluctuations in cash flow, with income generated during harvest seasons. Lenders need to consider these unique cash flow patterns and offer flexible repayment schedules to accommodate the income variability.

Technical Assistance and Financial Literacy:

Many farmers and agricultural entrepreneurs lack financial literacy and technical knowledge necessary to manage loans effectively. Financial institutions should provide training and technical assistance programs to enhance financial literacy and support the adoption of sustainable practices.





Conclusion:

Lending to agricultural enterprises is a crucial driver of growth, sustainability, and food security. By providing capital, risk management tools, and support for expansion, agricultural lending empowers farmers and entrepreneurs to optimize production, adopt sustainable practices, and contribute to economic development. Addressing challenges such as risk assessment, financial literacy, and collateral constraints will further enhance the impact of lending to agricultural enterprises, enabling them to thrive in an evolving global landscape. The conclusion summarizes the key findings and highlights the importance of understanding the characteristics of lending to agricultural enterprises. It emphasizes the need for tailored financial solutions, risk management strategies, and capacity-building initiatives to ensure the success and sustainability of agricultural lending.

References:

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2022). Agricultural Outlook 2022-2031. Retrieved from [insert link]
2. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (Year). Title of the publication. Retrieved from [insert link]
3. Author, A. B. (Year). Title of the research article. Journal Name, Volume(Issue), page range.





Замонавий тунги кўриш мосламалари ва уларнинг кўрсаткичлари.

Темиров.Б.Б., подполковник, ЧОТҚМБЮ Қуролланиш ва отиш кафедраси катта ўқитувчиси.

Аннотация: Ушбу мақолада Замонавий тунги кўриш мосламаларининг оддий ва қийин об-ҳаво шароитларида кузатишда, объектларгача бўлган масофани аниқлашда баҳолаш имконини беради.

Калит сўзлар: Сич-3" тунги, кўриш мосламалари, иссиқлик, электрон, ўлчагич ёруғлик, кузатиш, тўлқин.




"Сич-3" портатив иссиқлик мосламаси оддий ва қийин об-ҳаво шароитида ва муайян ҳудудни кузатишда, қидирув-қутқарув ишларини олиб боришда ва ёнғин манбаларини аниқлашда объектларни туну-кун излаш ва кузатиш учун мўлжалланган. Электрон гониометр-диапазонлар тармоғи объектга масофани ва бурчак координаталарини баҳолашга имкон беради.

Сич-3 иссиқлик ўлчагичи совутилмаган микроболометрларнинг илғор технологияларидан фойдаланади. Камера узоқ тўлқинли инфрақизил диапазонда ишлайди. Спектрнинг инфрақизил минтақасида атрофимиздаги табиий ва сунъий келиб чиқадиган объектларнинг кўпчилигининг ички электромагнит нурланишининг асосий қисми тўпланган. Юқори сифатли германий оптикадан фойдаланиш микроболометрнинг имкониятларидан энг самарали фойдаланишни таъминлайди. Ташқи қувват манбаи ва монитори улаш имконияти Сич-3-ни стационар ёки мобил версияда ишлатишга имкон беради.

Сич-3 иссиқлик ўлчагичи - бу бутун рус дизайни ва ишлаб чиқаришининг ягона музлатилмаган портатив термал тасвир камераси.

Техник хусусиятлари

ФПУ	МикроболометраСи/ ВОх
Формат, пикселлари	384 × 288
Пиксел ўлчами, микрон	25
МРТ, мК	< 70
иш режимига ўтиш вақти 25°С, дан	< 30





Объектив фокус узунлиги:	70 мм
Кўриш майдони:	$10,97^\circ \times 8,24^\circ$
Объективнинг фокус узунлиги, 70 мм - бўй коматни аниқлаш оралиғи, м:	1 700
Объективнинг фокус узунлиги, 70 мм - ўсиш кўрсаткичини аниқлаш диапазони, м	550
Фокус объектив узунлиги:	100
Объектив фокус узунлиги, 100 мм - Кўриш майдони:	$7,69^\circ \times 5,77^\circ$
Объективнинг фокус узунлиги, 100 мм - ўсиш кўрсаткичини аниқлаш майдони, м:	2 400
Объективнинг фокус узунлиги, 100 мм - ўсиш кўрсаткичини аниқлаш диапазони, м	800
Чиқиш сигнали / ОЛЕД	ГОСТ 7845-92
Таъминот кучланиши, В	7,2
Ишлаш ҳарорати	-20 ° С дан + 50 ° С гача (нормал батареядан) -30 ° С дан + 50 ° С гача (ташқи қурилмадан) қувватлантириш манбаи)
Сақлаш ҳарорати	-50°С дан +70°С гача
Габарит ўлчамлари, мм ф ʘ= 70 мм	200 × 145 × 90 зарбаларга чидамли, сув ўтказмайдиган
Габарит ўлчамлари, мм ф ʘ=100 мм	240 × 160 × 120 зарбаларга чидамли, сув ўтказмайдиган
Габарит ўлчамлари, мм фʘ=130 мм	255 × 165 × 137 зарбаларга чидамли, сув ўтказмайдиган





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

Оғирлиги , фъ=70 мм	1,5 га кг
Оғирлиги, фъ= 100 мм	1,7 га кг
Оғирлик фъ=130 мм	1,9 га кг

Таъриф муддати ўтган 2010 йил 15-апрел куни "Сйч-3 Портатив Термал Имагер" техник хусусиятларига ойдинлик киритиш, шунингдек этказиб бериш шартлари ва этказиб бериш шартлари ҳақида маълумот олиш учун сиз куйида жойлашган сўров формасини тўлдиришингиз мумкин.



NewsOn Оптикнинг энг яхши сотувчилардан бири, НВС-7 тунги кўриш кўзойнаклари АН / ПВС-7 Америка лойиҳасидан келиб чиққан. Одатдагидек, Америка армиясининг жиҳозлари бошқаларга қараганда анча мустаҳкам кўринади, ҳеч бўлмаганда чиқарилган қурилмалар сони бўйича ҳисоб-китоб деярли юз минглабни ташкил қилади. АН / ПВС-7 тунги кўриш кўзойнаклари 80-йилларнинг охиридан бошлаб камида "А" дан "Д" гача бўлган 4 та версияда ишламоқда; сўнгги тўпلامдаги янги қурилмалар Ген-3 телефонлари билан жиҳозланган. Икки кўзойнаги х1 га кўпайтирилган битта найчали тизимни юз ниқобига ёки дубулғага ўрнатиш мумкин. Фокус узунлиги 26 мм ва диафрагма 1,2 бўлган АН / ПВС-7 линзалари 40 ° кўринишга эга бўлиб, ёруғлик остида, 300 метрдан ошадиган ва 200 метрдан ошиқроқ масофада жойлашган. Оғирлиги 680 грамм бўлган инфрақизил тешикка эга ва иккита АА батареяси билан ишлайди, улар нурлантирувчи ўчирилган ҳолда 80 соат ишлашни таъминлайди.



АҚШ ҳарбийлари тўртта ишлаб чиқарувчилар билан ишлаб чиқариш шартномаларини туздилар: ИТТ Индустриес (ҳозирги эхелис), Литтон Индустриес, Нортхроп Грумман ва Л-3 Соммунисатионс; энди уларнинг барчаси Л-3 Варриор Системс таркибига киради. Ушбу тизим





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023


ханузгача компаниялар каталогларида мавжуд ва кўплаб мамлакатларга экспорт қилинади.

Америка компанияларидан ташқари, бошқа давлатлар АН / ПВС-7 талабларига мувофиқ тизимларни ишлаб чиқарадилар. НЛ963Б Нигхтлине ва Н-ВисионОптисс ПВС-7, шунингдек АН/ ПВС-7 га асосланган ва ўхшаш хусусиятларга эга.

Канадалик Невсон-Оптик компаниясининг НВС 7 қурилмаси ишлатилган трубага (хаммаси Ген-3) қараб, ЗХТ индексини, ёки ЗАГ (автоуловли эшик билан) ёки ЗАГБВ (қора ва оқ фосфорли ва автоматик эшикли) олади. Ўрнатилган фотосенситив сенсори билан нормал ташқи ёруғлик остида 30 сониядан сўнг найчани автоматик равишда ўчиради, бу найчанинг ёниб кетиш эҳтимолини сезиларли даражада камайтиради. Тизим ихчам (узунлиги 150 мм, кенглиги 120 мм ва баландлиги 55 мм); Невсон-Оптик НВС 7 қурилмасининг барча вариантлари 50 дан ортиқ мамлакатларга сотилган ва ханузгача талаб ката. ПНГ-М биокуляр битта трубка тизими Британиянинг Пйсер-СГИ компанияси томонидан универсал монокуляр ПНП-М билан параллел равишда ишлаб чиқилган, кўплаб компонентлар ва таркибий қисмлар бир хил, масалан, оптика ва найчалар. Ривожланиш пайтида оғирлик маркази юз ниқобига ёки дубулғага уланганда бўйин деформатсиясини камайтириш учун қурилманинг орқа томонига имкон қадар яқинроқ жойлаштирилди. ПНГ-М анъанавий қулфлаш механизми билан қулфланган, узунлиги 137 мм, кенглиги 147 мм, баландлиги 51 мм ва оғирлиги 425 грамм бўлган АА батареяси билан 40 соатдан ортиқ ишлашни таъминлайди.



Тхалес Миние-Д / ИР немис армияси томонидан ИдЗ-ЕС аскарларини модернизатсия қилиш дастури учун танланган, ҳозирда ушбу қурилмани этказиб бермоқда. Ушбу дизайн Миние номини олган унинг ворисида сақланиб қолган, унинг асосий версияси оғирлиги (435 граммга нисбатан батарея билан 340 грамм), лекин чуқурлиги бироз ошган (69 мм дан 75 мм гача). Янги Миние, шунингдек, қувват тугмачасини қўлда созлаш билан жиҳозланган, гуруҳлараро масофа 56-74 мм орасида ўзгариб туради. Энергия манбалари бир хил, аммо стандарт шароитларда батареянинг ишлаш муддати 50 соатгача оширилди 45 соат. Жанг майдонини рақамлаштириш ҳақиқатга айланиб бораётганини ҳисобга олиб, Тхалес янада узоқроқ юрди ва тунги кўриш кўзойнақларини Миние-Д стандартига мослаштирди. Улар Миние-



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

нинг хусусиятларини сақлаб қолишди, аммо 800x600 пиксел ҳажмдаги 42,5 ° диагонали кўриш майдони билан микро-дисплей кўшдилар, бу сизга тунги каналда видео ва маълумотларни узатишга имкон беради. Видео 800x600 даирасел тасвирнинг ўртасида кўрсатилади ва турли хил маълумотларни ўз ичига олиши мумкин: PC232 улагичи орқали навигатсия тизимига уланганда, масалан, позитсия, йўналтириладиган жойга масофа ва ҳоказо каби маълумотлар; ёки кучларни кузатиш тизимига уланганда, иттифоқдош ва душман кучларининг жойлашуви кўрсатилган харита кўрсатилади.

Фойдаланилган манбалар:

1. Skifland.ukoz.ru
2. Fanarik.cow
3. Zbroya.info
4. WWW.Zakon-GVIF.ru



Surxon vohasining tabiiy geografiyasi

Qurbonov Murodjon Normamat o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi


Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubida joylashgan. U o'z ichiga Surxon-Sherobod vodiysi va uning atrofini o'rab turgan tog'larni oladi. Viloyat sharqdan va shimoli sharqdan Bobotog' va Hisor tog'lari orqali Tojikiston bilan, shimoli g'arbda Qashqadaryo bilan chegaralanadi, chegara Chaqchar va Boysun tog'lari orqali o'tadi. G'arbda Turkmaniston bilan bo'lgan chegara Ko'hitang tog'ining suvayirg'ich qismidan o'tadi. Janubda chegara Afg'oniston bilan Amudaryo orqali o'tgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi.

Viloyatni shimol tomonidan Hisor tizmasi o'rab turadi. Bu tizmaning balandligi 4500-4600 metrga yetadi. O'zbekistondagi eng baland cho'qqi — Hazrat Sulton (4643 m) ham shu tog'da joylashgan.

Boysuntog' ham balandligi ancha baland bo'lib, ayrim cho'qqilari shimoli sharqida 3700 metrga yetadi. Boysuntog'ning janubi g'arbida Ko'hitang tog'i joylashgan. Ko'hitang janubi g'arbiga 50 km cho'zilgan va balandligi 3137 metrga yetadi. Boysuntog'ning sharqida unga yonma-yon holda Surxontog' joylashgan, u qisqa, lekin ancha baland (3882 m) tog'dir. Bu tog'ning janubida Sherobod-Sariqamish past tog'lari (1126 m) joylashgan. Sherobod-Sariqamish past tog'ining janubi g'arbida Klif-Sherobod past tog'i joylashgan.

Surxondaryo tabiiy geografik okrugining sharqida Bobotog' joylashgan. Bu tog' ancha yemirilib, pasayib qolgan bo'lib, eng baland Zarkosa cho'qqisi 2289 metrga yetadi. Bobotog' g'arbiga, Surxondaryo vodiysiga va janubga qarab asta-sekin pasayib ketadi. Okrugda, yuqorida qayd qilingan tog'lar orasida botiqlar joylashib, neogen va antropogen davri yotqiziqlari bilan to'lgan.

Viloyatda qazilma boyliklardan neft va gaz, ko'mir, polimetall, alumin rudasi, girs, tuz, har xil qurilish material konlari mavjud. Neft va gaz, asosan, Lalmikor, Ko'kaydi, Xovdog'dan, toshko'mir Sharg'undan qazib olinadi. Sariosiyoda polimetall rudasi, aluminiy rudasi, girs, ohak konlari bor. O'zbekistondagi eng katta Xo'jaikon tuz koni shu okrugda joylashgan. Surxondaryo janubida tarkibida har xil erigan moddalar





saqlovchi bir necha mineral suvlar topilgan. Ularning eng muhimi Jayronxona mineral suvi hisoblanadi.

Surxondaryo vodiysining iqlimi quruq subtropik. Lekin atrofidagi tog'larga ko'tarilgan sari iqlim harorati o'zgaradi. Okrugning tekislik qismida yoz serquyosh, issiq va quruq, tog'ga tomon harorat pasayib boradi. Qish qisqa va iliq, lekin atrofidagi tog'larda sovuqroq bo'ladi.

Yozda Surxondaryoning tekislik qismi juda isib ketadi. Qish vohaning tekislik qismida iliq bo'ladi. Ba'zan qishda sovuq havo massalari tog'lardan o'tib, tekislik qismi haroratini pasaytirib yuboradi. Shunday kezlarda havo harorati -20 -25°C gacha pasayadi.

Surxondaryo vohasida yog'inlar notekis taqsimlangan. Vohaning janubidagi tekisliklarga eng kam yog'in (yiliga 133-230 mm) tushadi. Surxondaryo viloyatida uzunligi 20 km dan ortiq bo'lgan 35 ta daryo mavjud. Bu daryolar ichida eng kattalari Surxondaryo va Sheroboddaryo hisoblanadi.

Surxondaryo To'polondaryo bilan Qoratog' daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi. To'polondaryo Surxondaryoning eng katta va eng sersuv irmog'i, Hisor tog'ining eng baland qismidan Qorasuv nomi bilan boshlanib, G'ova irmog'ini qo'shib olgach, To'polondaryo nomini oladi. Uning uzunligi 124 km bo'lib, qor-muzlarning erishidan to'planadi. Uning o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 54,6 m.kub, eng ko'pi sekundiga 470 m.kub, eng kami 5,7 m.kub. Qoratog' daryosi Hisor tog'ining 4200 m balandlikdagi janubiy yonbag'ridan shu nom bilan boshlanadi. Uning uzunligi 100 km atrofida. Qoratog' daryosi qor-muzlarning erishidan to'planadi.

Surxondaryo To'polon bilan Qoratog' daryolarining qo'shilgan yeridan Amudaryogacha 196 km. Shu masofada o'ng tomondan Sangardak va Xo'jaipok irmoqlarini qo'shib oladi.

Surxondaryo, asosan, qor-muzlarning erishidan to'planib, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Qorovultepa qishlog'i yonida sekundiga 70,2 m.kub ni tashkil etadi, eng katta suv sarfi sekundiga 600 m.kub, eng kami sekundiga 0,1 m.kub.

Sheroboddaryo Boysun tog'i va uning davomi hisoblangan Ko'hitang tog'ining sharqiy yonbag'ridan boshlanuvchi Irg'oyli va Qizilsoy daryolari qo'shilishidan vujudga keladi. U Sherobod shahridan quyida Qorasuvdaryo deb yuritiladi. Uning uzunligi 186 km bo'lib, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 7,5 m.kub.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023


Sheroboddaryo qor-yomg'ir suvlaridan to'yinganligi tufayli eng ko'p suvi aprel — may oylarida oqadi.

Yerosti suvlari har xil davr yotqiziqlari orasida uchraydi. Paleogen va neogen davri yotqiziqlari orasidagi 140—150 m chuqurlikdan chuchuk suv chiqadi. Bo'r davri yotqiziqlari orasidagi 1000 —2000 m chuqurlikdan chiquvchi mineral shifobaxsh suv harorati +60 +70°C ga yetadi.

Surxondaryo tabiiy geografik o'lkasida suv ta'minotini yaxshilash maqsadida Janubiy Surxon (suv sig'imi 800 mln m.kub), Uchqizil (suv sig'imi 16 mln m.kub) suv omborlari qurilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Z.Saidboboyev. Tarixiy geografiya “Noshir” Toshkent 2010
2. Z.Saidboboyev. Tarixiy geografiya va kartografiya Toshkent: Shafolat Nur Fayz, 2020. - 160 b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi





ОТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ОТИШ ТАЙЁРГАРЛИГИ БЎЙИЧА ЗАМОНАВИЙ ТРЕНАЖЁР КОМПЛЕКСЛАРНИНГ РОЛИ О'РНИ

Ниёзов Самандар Ўктамович

Чирчиқ олий танк қўмондонлик муҳандислик билим юрти

Қуролланиш ва отиш кафедраси катта ўқитувчиси,

Annotatsiya: Ушбу мақолада муаллифларнинг жаҳондаги илғор давлатлар мутахассисларининг дунё бўйича симулятор тренажерлар ёки уларнинг алоҳида қисмларини ишлаб чиқариш билан шуғулланувчи компанияларнинг амалга оширган тадқиқотлари, кейинги йилларда юзага келган маҳаллий қуролли низолар тажрибалари, электрониканинг шиддатли ривожланишини ўрганиш ва замон талабларига жавоб берадиган тренажерлар унинг ҳаётга тадбиқ этиш ёндашувлари ёритилган.

Калит сўзлар: “ФАЙЕРТАГ” ҳарбий – тактик ўйинида тактик вазиятдан келиб чиқиб, шаҳар (аҳоли яшаш пунктлари), тоғ ва чўл шароитларининг моделини яратган ҳолда гуруҳ ёки взвод таркибида жанговар ҳаракатлар олиб бориш мумкин.

Миллий армиямиз ривожланиб бориши билан уни қурол-яроғ ва жанговар техника билан таъминлаш бўйича ҳам кенг кўламли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Қўшинлар замонавий ва модернизация қилинган ўқ-отар ва оғир қуроллар, вертолётлар, самолётлар, ҳаво ҳужумидан мудофаа воситалари, автомобиль ва бронетехникалар, алоқа воситалари билан таъминланмоқда. Зеро, мамлакатимиз Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Шавкат Мирзиёев, ўзининг Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг муносабати билан Ватан ҳимоячиларига йўллаган байрам табригида “Ўзимизнинг ютуқларимиз ва камчиликларимизнинг танқидий таҳлилидан келиб чиққан ҳолда, келажакда ҳар томонлама ўйлаб кўрилган ишларимизни бор кучимизни сарф этган ҳолда миллий армиямизни келгусида янада ривожлантириш ва такомиллаштириб боришимиз зарур.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

Биз бу вазифани бажариш давомида ўқитиш жараёнига янги услуб ва технологияларни, ўқув аудиторияларига замонавий тренажёрлар, ўқув ва лаборатория мосламалари ва компьютерларни киритиш, шунингдек, тингловчиларнинг дунё қараши, маънавиятини ошириш ҳамда спорт билан шуғулланишлари учун имкониятлар яратиб беришимиз даркор” деб таъкидлаган эдилар.

Ҳозирги даврда дунёнинг кўплаб мамлакатлари ҳарбий-сиёсий раҳбарияти, ушбу мамлакатлар армияларининг жанговар ва оператив тайёргарлиги муҳим таркиби ҳисобланган ҳарбий кадрлар тайёргарлигига алоҳида эътибор қаратмоқда. Улар асосан кўшинларнинг кундалик фаолиятида жанговар тайёргарлик машғулотларини ташкиллаштиришда, айниқса, ҳарбий хизматчиларнинг дастлабки кўникмаларини такомиллаштиришда отиш тайёргарлиги бўйича замонавий тренажёр комплекслар ёрдамига таянган ҳолда олиб бормоқда. Улар, ҳарбий хизматчиларнинг жароҳат олиши, қурол-аслаҳа ва ҳарбий техникаларнинг ишдан чиқиши ҳамда ўқ-дорилар ва ёқилғи, мойлаш маҳсулотларини тежаш имконини бермоқда.

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларида, ҳарбий кадрларни тайёрлашда оператив ва жанговар тайёргарликнинг замонавий тажрибаларидан келиб чиқиб, замонавий тренажёрлардан ва дала ўқув моддий-техник таъминотидан кенг миқёсда фойдаланган ҳолда амалий машғулотларни ўтказиш лозимлигини замоннинг ўзи талаб қилмода.

Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқарилган динамикли компьютер ўқ отиш тренажёри (ДК-440М). Тренажёр ўқ отар қуролларидан ўқ-дорилар сарфламасдан, бир хил мўлжалга олиш ва ўқ отишни амалга ошириш учун мўлжалланган.

Тренажёр ўқувчилар учун 6 ўқув жойи (3- АК-74, 1-РПГ-7, 1-СВД, 1-ПМ) ва бир ўргатувчи – оператор иш жойи билан жиҳозланган. Ушбу тренажёрдан ҳаракатсиз нишонга ўқувчиларнинг ҳар бир ҳаракатини алоҳида баҳолаш билан ўқ отиш амалга оширилади. Тренажёр ўз таркибига монитор, компьютер, узлуксиз ток манбаи, принтер ва овоз чиқариш тизимларини олади. Ушбу тренажёрни ўрнатиш ва ундан фойдаланиш учун узунлиги 10 м, эни 6,5 м, ва баландлиги 2,5 м, бўлган синф хонаси зарур. Электрон нишонлар, отиш маррасидан 5 м узокликда ўрнатилади.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

ДК-440М тренажёри ўқувчиларга қуролни тўғри ушлаш ва тепкини босиш ҳамда турли отиш ҳолатларида ўқ узиш вақтида қўлнинг барқарор туришини машқ қилиш, шунингдек, машғулот раҳбарига эса машғулот давомида ўқувчиларнинг мўлжалга олиш ва отиш вақтида йўл қўйган камчиликлари, ҳамда улар олган баҳоларни қоғозга чиқариш имконини беради.

Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқарилган такомиллашган, олиб юрилувчи манзарали компьютер тренажёри (ПКСТ-2 МП). Ўқ- дори сарфламасдан ташқи тактик вазиятни экранда акс эттирган ҳолда бошланғич ўқ отиш тайёргарлигини ўргатиш учун мўлжалланган. Отиш машқлари, экрандаги ҳаракатланувчи ва ҳаракатсиз нишонларга ўқ отиш орқали амалга оширилади. Ўқувчилар учун тренажёрда 5 та ўқув жойи жиҳозланган (3- АК-74, 1-РПГ-7, 1-СВД). Отиш курсидаги одатий ўқ отиш машқларидан ташқари, тренажёрда душман ҳаракатларини табиий кўрсатиш элементлари билан бажарилувчи тактик машқлар ҳам мавжуд. Бундай турдаги машқлар ўргатувчига вазиятнинг турли шароитларида ҳарбий хизматчиларга ностандарт қарорлар қабул қилишга ўргатиш имконини беради. Дастур талафот етказилган жойни юқори аниқлик билан кўрсатиш ва машқ бажарилгандан сўнг ўрганувчиларнинг машқ ижросини кенгроқ таҳлил қилиш учун шароит яратади. Тренажёр notebook, узлуксиз ток манбаи, принтер, овоз чиқариш тизими ва ҳаво компрессорини ўз ичига олади. Ушбу тренажёрни ўрнатиш ва ундан фойдаланиш учун узунлиги 9 м, эни 4 м, ва баландлиги 3 м, бўлган синф хонаси зарур. Электрон нишонлар, отиш маррасидан 5 м узоқликда ўрнатилади.

Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқарилган ТОПТ-62, ТОПТ-72 танк тренажёрлари, танк экипажлари мажмуавий тренажёри, (ПЖМ-2) ва бронетранспортёр (БТР-80) мўлжалга олувчисининг ҳаракатчан компьютер тренажёри. ПЖМ-2 ва БТР-80 жанговар машиналарининг қуролларидан турли хил жой шароитларида пайдо бўлувчи ва ҳаракатланувчи нишонларга, аниқ бурчак тезлиги билан ва нишонга олиш натижаларини тўлиқ таҳлил этган ҳолда, ўқ-дори ва юриш захираларини сарфламасдан, ўқ отишни ўхшатиш (ўқ отишни овозли ўхшатиш) орқали ўқ отишни ўргатиш учун мўлжалланган. Тренажёр куннинг совуқ вақтларида очик хоналарда ва ёпиқ иситилувчи хоналарда ҳамда очик майдонларда фойдаланиш учун мўлжалланган.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 4.9 / 2023

